

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH.

Murodaliyeva Azizaxon Xaydaraliyevna
Andijon viloyati Paxtaobod tumani MMTB
ga qarashli 18- umumiy o'rta ta'lim
maktabning amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish ya'ni intellektual-ijodiy qobiliyatlar shaxsning ta'sirchanligi, predmetni idrok qilishning kuchlilik va yaxlitligi ijodkorlik haqidagi fikrlar mavjud.

Kalit so'zlar: Ijodkorlik, sintez, analiz, intellektual talab, faoliyat jarayoni

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy, intellektual va ijodiy jihatdan rivojlantirish muammosi dolzarb ahamiyatga ega ijtimoiy-pedagogik va ustuvor masala sifatida o'rganadi. Ijodkorlik bugungi davr talabidir. Har bir shaxs yangilik yaratishga harakat qilishi intilishi kerak. Ayniqsa texnologiyalar rivojlangan zamonda ijodkor yoshlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bunda yurtboshimiz SH.M. Miromonovichning yoshlarga yaratib berayotgan shart-sharoitlarini o'rni beqiyosdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini rivojlantirish uchun o'quv dasturlarining tuzilishi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini rivojlantirish uchun o'quv dasturlarining tuzilishi muhimdir, chunki bular yoshlarning o'z-o'zlarini rivojlantirish, ijodiylikni oshirish va o'z fikrini aytishni o'rganish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi. Ijodiy darslar, ta'limiy o'yinlar va ijodiy loyiha asosida ta'lim – bu maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini oshirish uchun eng yaxshi o'quv dasturlardir.

1. Ijodiy darslar

Ijodiy darslar, bolalarning ijodkorligini oshirish uchun eng yaxshi o'quv dasturlaridan biridir. Bu darslarda bolalarga ijodiylikni oshirish va o'z-o'zini ifodalash uchun imkoniyat beriladi. Bu darslarda bolalar o'z fikrlarini ifodalash, yangi narsalarni yaratish va ijodiylikni oshirish uchun malakalarini rivojlantirishadi.

2. Ta'limiy o'yinlar

Ta'limiy o'yinlar bolalarning o'z-o'zini rivojlantirishiga yordam beradi, chunki maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faolyati bu o'yindir. O'yin orqali bolalarda juda katta natijalarga erishilsa bo'ladi. Ta'limiy o'yinlar ta'limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o'yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O'yinda o'yin maqsadi, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin maqsadi o'yin

harakatlarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi esa, o'yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o'yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi. Ta'limiy o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi. Ta'limiy o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida ta'limiy o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o'yinlar mashg'ulot jarayonida va o'yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o'tkaziladi. Bunda o'yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi.

3. Ijodiy loyiha asosida ta'lim

Ijodiy loyiha asosida ta'lim, bolalarning o'z-o'zini rivojlantirish uchun eng yaxshi o'quv dasturlaridan biri hisoblanadi[2]. Bu usulda, bolalarga o'z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyat beriladi va ular o'z fikrini ishlab chiqish va uning amaldagi sifatini baholash orqali ijodkorligini oshirishga imkoniyat beriladi. Bolalarni nafaqat ijodiy-intellektual, balki muloqot qilish, ijtimoiy faoliyatga intilish, ommaviy axborot vositalari, milliy va jahon madaniyatiga qiziqish, o'z bilimlari bilan o'rtoqlashish kabi ijtimoiy-komunikativ qobiliyatlar ham shakllanadi[3]. Unda oldindan sezish, rejalashtirish, ma'suliyat, qat'iyat, o'z-o'zini boshqarish, nazorat qilish kabi emotsional, intellektual va irodaviy xususiyatlar faollashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bakitovich, A. E. (2020). Improvement of technologies of ecological education of pupils. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(6), 165171.
2. "The Importance of creativity in Education" by Kirstie Heming (2019)
- FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR
- 3.S.N. Nishonova "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanma
4. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya «Piter»,1999
- 5.Ananov B.G. "Chelovek kak predmet poznaniya". "Piter", 2001.